



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI
RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI**



Respublika
Ta'lim Markazi

**2020-2021-O'QUV YILIDA UMUMIY O'RTA TA'LIM
MAKTABLARINING 8-SINF O'QUVCHILARI UCHUN BOSQICHLI
IMTIHON O'TKAZISH BO'YICHA O'ZBEKISTON DAVLATI VA
HUQUQI ASOSLARI FANIDAN METODIK TAVSIYA VA
MATERIALLAR**

Toshkent-2021

Imtihon materiallari va tavsiyalar Respublika ta'lim markazi huzuridagi 2021-yil 30-martdagi 1-sonli ilmiy-metodik kengashida muhokama qilinib, nashrga tavsiya etilgan.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 8-sinf o'quvchilari bosqichli nazorat imtihonini o'tkazish bo'yicha metodik tavsiya va materiallarni tijoriy maqsadda ko'paytirib tarqatish taqiqlanadi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari metodbirlashmalari bosqichli nazorat imtihoni materiallariga 15-20% gacha o'zgartirishlar kiritishi mumkin.

Tuzuvchilar:

O.Shernayev- Respublika ta'lim markazi bo'lim boshlig'i.

A.Abdunazarov- Respublika ta'lim markazi metodisti.

Taqrizchilar:

S.Akkulova - Toshkent shahar xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi "Ijtimoy-iqtisodiy va amaliy fanlar metodikasi" kafedrasida katta o'qituvchisi

S.Shermuxamedova - Toshkent shahar xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi "Ijtimoy-iqtisodiy va amaliy fanlar metodikasi" kafedrasida katta o'qituvchisi

M.Axmedova - Toshkent shahar, Yangihayot tumani 303-maktab davlat va huquq asoslari fani o'qituvchisi.

O‘ZBEKISTON DAVLATI VA HUQUQI ASOSLARI

8-SINF

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinflarida O‘zbekiston davlati va huquqi asoslari fanidan bosqichli imtihon og‘zaki shaklda, tavsiya etilgan imtihon materiallari asosida o‘tkaziladi.

Bosqichli imtihon uchun O‘zbekiston davlati va huquqi asoslari fanidan taqdim etilgan topshiriqlar Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturiga mos bo‘lib, 30 ta biletta berilgan. Har bir biletta 2 tadan savol mavjud. O‘quvchilar biletni olganlaridan keyin tayyorgarlik ko‘rish va javob berishlari uchun 20 daqiqa vaqt ajratiladi.

O‘zbekiston davlati va huquqi asoslari fani chuqurlashtirib o‘qitiladigan maktab ma’muriyati fan metodbirlashmasi qarori bilan mazkur maktabning 8-sinf o‘quv dasturiga mos bittadan qo‘shimcha savol kiritishlari mumkin va qo‘shimcha 5 daqiqa vaqt beriladi.

1 ta muhrlangan konvertni o‘quvchilardan biri ochadi.

O‘quvchilarning og‘zaki javoblari quyidagi mezonlar asosida baholanadi.

Birinchi savol bo‘yicha o‘quvchilarning bilimlari quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

t/r	Mezonlar	Ball
1	Savolning asosiy mazmunini tushuna olishi, to‘liq va aniq ta’rif berishi, nazariy asoslarini bilishi, so‘ralgan ma’lumotni aniq misollar orqali amaliyot bilan bog‘lab tushuntira olishi, ma’lumotni O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va qonunlari bilan bog‘lab tushuntira olishi	5
2	Savolning asosiy mazmunini tushuna olishi, to‘liq va aniq ta’rif berishi, nazariy asoslarini bilishi, so‘ralgan ma’lumotni aniq misollar orqali amaliyot bilan bog‘lab tushuntira olishi.	4
3	Savolning asosiy mazmunini tushuna olishi, to‘liq va aniq ta’rif berishi, nazariy asoslarini bilishi	3
4	Savolning asosiy mazmunini tushuna olishi, to‘liq va aniq ta’rif bera olishi	2
5	Savolning asosiy mazmunini tushuna olishi	1

Ikkinchi savol bo'yicha o'quvchilarning bilimlari quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

t/r	Mezonlar	Ball
1	Huquqiy atamaga to'g'ri ta'rif bera olishi, huquqbuzarlikning ob'yekti va sub'yektini ko'rsata olishi, huquqning qaysi sohasiga tegishli ekanligini aniqlay olishi, huquqbuzarlikning ob'yektiv va sub'yektiv tomonlarini aniqlay olishi. Ushbu huquqbuzarlikga huquqiy baho bera olishi	5
2	Huquqiy atamaga to'g'ri ta'rif bera olishi, huquqbuzarlikning ob'yekti va sub'yektini ko'rsata olishi, huquqning qaysi sohasiga tegishli ekanligini aniqlay olishi. Ushbu huquqbuzarlikga huquqiy baho bera olishi.	4
3	Huquqiy atamaga qisman ta'rif bera olishi, huquqbuzarlikning ob'yekti va sub'yektini ko'rsata olishi, huquqning qaysi sohasiga tegishli ekanligini aniqlay olmasa.	3
4	Huquqiy atamaga qisman ta'rif bera olishi, huquqbuzarlikning ob'yekti va sub'yektini ko'rsata olishi, huquqning qaysi sohasiga tegishli ekanligini aniqlay olmasa, huquqbuzarlikning ob'yektiv va sub'yektiv tomonlarini aniq ko'rsata olmasa.	2
5	Huquqbuzarlikning axloq-odob qoidalariga ta'sirini aniqlay olishi	1

O‘zbekiston davlat va huquq asoslari
8-sinf

1-BILET

1. Bola huquqlari va uning kafolatlari.
2. Tovlamachilik nima? Tovlamachilik uchun qanday jazo qo‘llanadi?

2-BILET

1. Davlatning tuzilish shakliga ko‘ra turlarini tushuntiring? (Misollar yordamida).
2. Mashina o‘g‘irlash sodir etilganda qanday jazo qo‘llanadi?

3-BILET

1. Davlat tushunchasini izohlab bering?
2. Tuhmat nima? Tuhmat qilganlik uchun qanday jazo qo‘llaniladi?

4-BILET

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona qo‘mitasi va uning faoliyati?
2. Fuqaroning shaxsiy huquqlari va erkinliklarining paymol etilishi, deganda nima tushuniladi?

5-BILET

1. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat tushunchalariga ta’rif bering.
2. Firibgarlik nima? Firibgarlik uchun qonunda qanday jazo belgilangan?

6-BILET

1. Axloq va huquq nima?
2. Voyaga yetmaganlarning Oila qonunchiligida belgilab qo‘yilgan huquqlarini aytib bering?

7-BILET

1. Huquq normalari nima va u qanday elementlardan tashkil topadi?
2. Bezorilik nima va uning oqibatlari qanday?

8-BILET

1. Huquq deganda nimani tushunasiz?
2. Talonchilik nima? Talonchilik sodir etilganda qonunga ko‘ra qanday jazo qo‘llaniladi?

9-BILET

1. Davlatning belgilarini aytib bering.
2. Haqorat qilish nima va uning oqibatlari?

10-BILET

1. Davlatning boshqaruv shaklini tushuntiring? (Misollar yordamida)
2. Odam o‘g‘irlash deganda nima tushuniladi? Ushbu jinoyat uchun qanday jazo

qo‘llaniladi?

11-BILET

1. Jamiyat deganda nimani tushunasiz?
2. Qasddan badanga tan jarohat yetkazish deganda nima tushuniladi? Ushbu jinoyat uchun qonunga ko‘ra qanday jazo qo‘llaniladi?

12-BILET

1. Huquqning ob‘yektiv funksiyalarini sanab bering. (Misollar keltiring)
2. Mehnat qonunchiligida voyaga yetmaganlarning huquqlari.

13-BILET

1. Davlat organlari nima? (Misollar keltiring)
2. Yolg‘on guvohlik nima? Yolg‘on guvohlik qanday oqibatlarga olib keladi?

14-BILET

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining mutloq vakolatlarini aytib bering.
2. To‘la muomala layoqati nima va u qachon vujudga keladi?

15-BILET

1. Huquqbuzarlik va uning turlari.
2. 14 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlarning huquqlarini aytib bering.

16-BILET

1. Oila qonunchiligida voyaga yetmaganlarning huquq va majburiyatlari.
2. Emansipatsiya nima? Misollar keltiring.

17-BILET

1. O‘zbekiston Respublikasida qonun manbalari.
2. Qisman muomala layoqati deganda nima tushuniladi va u qachondan beriladi?

18-BILET

1. Huquqiy munosabat va uning turlari.
2. O‘qotar qurol, o‘q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalarini qonunga xilof ravishda saqlaganlik uchun qonunda qanday jazo belgilangan?

19-BILET

1. DXX (Davlat xavfsizlik xizmati) va uning vazifalari
2. Bosqinchilik va uning oqibatlari.

20-BILET

1. O‘zbekiston Respublikasidagi huquq sohalari to‘g‘risida gapirib bering.
2. 18 yoshga to‘lmagan, voyaga yetmaganlarning huquqlarini aytib bering.

21-BILET

1. Davlat funksiyalari va uning turlari
2. Muomala layoqati nima va u qachondan vujudga keladi?

22-BILET

1. O‘zbekiston Respublikasida sud tizimi.
2. Axloq nima? Huquq nima? Ularni bir-biridan farqi nimada?

23-BILET

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlarini aytib bering.
2. Yo‘l harakati qoidalari buzilganda qanday jazo qo‘llaniladi?

24-BILET

1. O‘zbekiston Respublikasida ijro etuvchi hokimiyatning faoliyati.
2. Mualliflik huquqini buzish.

25-BILET

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi.
2. Qonunga zid ravishda o‘qotar qurol saqlaganlik uchun qanday jazo belgilangan?

26-BILET

1. Siyosiy tartibot deganda nimani tushunasiz? Siyosiy tartibot turlariga misol keltiring.
2. Qasddan badanga yengil shikast yetkazish va uning oqibatlari.

27-BILET

1. Notarial idoralar va ularning faoliyati?
2. Madaniy yodgorlikka zarar yetkazganlik uchun qanday jazo belgilangan?

28-BILET

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining mutloq vakolatlarini aytib bering.
2. Davlat dastlab paydo bo‘lgan ibtidoiy jamiyatdan nimasi bilan farq qiladi?

29-BILET

1. Huquqiy davlat deganda qanday davlatni tushunasiz?
2. Huquqbuzarlik va uning turlari.

30-BILET

1. Davlat shakllari deganda nimani tushunasiz?
2. Shaxsning shakllanishiga qanday omillar ta’sir ko‘rsatadi? Shaxs uchun qanday qadriyatlar muhim?